



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA IQLIM O‘ZGARISHI
MILLIY QO‘MITASI HUZURIDAGI DAVLAT EKOLOGIK
EKSPERTIZASI MARKAZI
QASHQADARYO VILOYATI FILIALI**

Manzil: 180100, Qarshi shahar, Jayxun ko‘chasi, 5- uy, Tel: 75-221-00-68

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/05-5425

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: BUNYODKOR GAZ INVEST MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT**ga berildi.

STIR: 303014422

Obyekt nomi: Qarshi shahar "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini "Nurxona" ko'chasi 15-uy hududidan "Ko'p qavatli turar
joy" binosini loyihalashtirib qurilishiga atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyihasi.

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "ECO AUDIT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN
JAMIYAT**

STIR: 307571242

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: PO'LATOV ANVAR DAVRANOVICH

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 17.04.2026

Amal qilish muddati: 17.04.2029

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



J.Berdiyev

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

- 1. Yer maydonidan belgilangan tartibda ajratib olib ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish;*
- 2. Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi tomonidan obyektning qurib-tiklash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagi 216-sonli qarorining 35, 40 va 41-punktlariga asosan ekologik nazoratni amalga oshirish;*
- 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda 46-sonli "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoniga asosan ko'kalamzor maydon hududini umumiy maydondan 25 % dan kam bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;*
- 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-yanvardagi 40-sonli "Qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom" talabiga asosan qurilish davomida hosil bo'ladigan chiqindilarni ko'mish va zararsizlantirish uchun majburiy shartnoma tuzish;*
- 5. Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida mazkur hududga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot bilan birgalikda o'rganib Maishiy chiqindilarni vaqtincha to'plash shoxobchalarini tashkil etish.*
- 6. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida 2022-yil 11-avgustdagi 189-sonli farmoni bo'yicha: belgilab qo'yilsinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab, yangi quriladigan kam xonadonli uylarni chiqindi to'plash joylarini belgilamasdan loyihalashtirish hamda foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi;*
- 7. Chiqindi to'plash maydonchalarini turar joy binosidan hamda bolalar maydonchasidan 25 metr uzoqlikda joylashtirish (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 20-maydagi 01/2-20-son buyrug'iga ilova);*

8. Hosil bo'ladigan oqova va chiqitlarni o'z vaqtida to'plab joylashtirish hamda zararsizlantirish hamda oqova suvlarni joylashtirish masalasini hal etgandan so'ng ko'p qavatli turar joy binosini ishga qabul qilish;

9. Qurilish davrida chang va shovqinni oldini olish maqsadida yuqori qavatlardagi qurilish va ta'mirlash chiqindilarini xavfsiz va tez pastga tushirish uchun maxsus qurilish shlanglari va bardoshli axlat qutilarini o'rnatish;

10. Obyektni sanitar himoya zonasini O'zbekiston Respublikasi Sanitariya Qoidalari, Normalari va Gigiyena Normativlari 0103-25-sonli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 29-sentyabrda hisobga olindi, hisob raqami 373) me'yorlariga asosan o'rnatish;

11. Har qanday balandlikdagi demontaj, ta'mirlash va qurilish ishlari vaqtida chiqindilarni pastga tushirish quvuri (rukav) va maxsus konteynerlar tashkil etish; Qurilish obyektlarida qurilish materiallarini yopiq omborlarda saqlash, ochiqda bo'lsa, PVX yoki brezent tent bilan majburiy yopib qo'yish; Huquqbuzarlik sodir etgan qurilish tashkilotlarining "Shaffof qurilish" platformasidagi reyting ballarini kamaytirish amaliyotini joriy qilish. Qurilish obyektlarini fon monitoring stansiyalari bilan jihozlash va Ekologiya qo'mitasining axborot tizimlariga (Situatsion markazi)ga integratsiya qilish; Yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarni (yakka tartibdagi uy-joylar bundan mustasno) loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish. 6. Qurilish maydonlarida qurilish obyektlar bo'yicha loyiha-smeta va shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda majburiy ravishda ekologik ekspertiza xulosasini taqdim etish tizimi joriy qilish.

12. Qurilish davrida obyektga chang-to'zon ko'tarilishini oldini olish maqsadida obyektga suv sepish tadbirini ishlab chiqish hamda obyektga kirib chiqadigan avtotransport vositalarini hududni ifloslantirmasligi uchun yuvish joyini tashkil etish;

13. Toza texnologiyalardan samarali foydalanishda elektr quvvatini imkon qadar tejoychi va obyekt faoliyati jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan quvvat tejoychi muqobil quvvatlardan foydalanishda quyosh panelli batareyalari o'rnatilishini ta'minlash (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarori);

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil yetish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoni 2-bandi Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriy amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan bo'lib, atrofdagi daraxtlarning o'suvchanlik darajasiga zarar yetkazish yoki kesilishiga yo'l qo'yilmaslik;

15. Obyektda qurilish ostidagi daraxtlar va butalar tushib qolgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-Fevraldagi 86-sonli qarori asosida yagona interaktiv davlat xizmatlari partali orqali xulosa olish tavsiya etiladi.

NAZORAT UCHUN

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi **Qarshi shahar "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini "Nurxona" ko'chasi 15-uy hududidan "Ko'p qavatli turar joy" binosini loyihalashtirib qurilishiga atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyihasini** atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyihasida keltirib o'tilgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ***nazoratga olish talab etiladi.***

Loyihani ro'yobga chiqarish to'g'risidagi Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi ruxsatnoma tarzida amaldagi qonun talablari asosida olinadigan hujjatlar o'rnini bosmaydi va ularni olish zaruriyatini inkor etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 541-sonli 7-sentyabr 2020- yildagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi Nizom"ning 3-bob 26-bandi, 6-bob 47-bandi va 7-bob 57-bandlariga binoan: buyurtmachi davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun javobgar bo'ladi;

Davlat ekologik ekspertizasining loyihani amalga oshirishning maqbulligi to'g'risidagi xulosasi ***uch yil*** davomida amal qiladi, agar ushbu muddatda loyihalashtirilgan ishlar bajarilmasa yoki loyiha qarorlari o'zgartirilsa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat ekologik ekspertizasiga yangi atrof muhitga ta'sirni baholash materiallari loyihasi ishlab chiqilishi va taqdim etilishi kerak.

Quyidagi hollarda Davlat ekologik ekspertizasi xulosasining amal qilishi tugatiladi: buyurtmachi tomonidan Davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'rsatilgan talablarga rioya qilmaslik va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

Xulosa talablarini bajarilishini nazorat qilib borish O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasining Qarshi shahar bo‘limi boshlig‘iga yuklatiladi.

Ekspert A.Po‘latov.



Ma’sul ekspert: PO‘LATOV ANVAR DAVRANOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Davlat ekologik ekspertizasiga Qarshi shahar "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini "Nurxona" ko'chasi 15-uy hududidan "Ko'p qavatli turar joy" binosini loyihalashtirib qurilishiga atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyihasi hujjatlari taqdim etilgan.

Obyekt O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi **541-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik ekspertisasi to'g'risidagi Nizomi"** talabiga asosan atrof muhitga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra aholisi 50 ming va undan kam aholi istiqomat qilishi uchun loyihalashtirilayotgan obyektlarga mansub bo'lib, maqsad yer maydonida "Ko'p qavatli turar joy binolari" faoliyatini amalga oshiruvchi obyektни tashkil etishdan iborat.

Obyekt joylashtiriladigan yer maydoni Qarshi shahar "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini "Nurxona" ko'chasi 15-uy hududida joylashgan.

Obyekt qurilishi mo'ljallangan yer maydoni ko'p qavatli turar joy binosi koordinatalari: shimol tomondan Shimol tomondan 143.0 metr yul va ko'p qavatli uy bilan; sharq tomondan 32.0 metr aholi turar joyi bilan, janub tomondan 143.0 metr yo'l va noturar obyekt bilan, g'arb tomonidan 32.0 metr aholi turar joyi bilan chegaralangan.

Obyekt joylashgan yer maydoni Geografik koordinatalari GOOGLE tizimi buyicha yer maydoni ko'p qavatli turar joy binosi koordinatalari: 1-nuqta 38°50'53.10" ShK 65°47'20.59" ShU, 2-nuqta 38°50'52.96" ShK 65°47'22.87" ShU, 3-nuqta 38°50'52.39" ShK 65°47'22.85" ShU, 4-nuqta 38°50'52.46" ShK 65°47'20.58" ShUda joylashgan.

Yer uchastkasi yer maydoni 0,4628 kv.metrni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Qashqadaryo viloyati bosh boshqarmasining Qarshi shahar bo'limi vakili va Qarshi shahar Oqtepa Mahalla Raisi hamda obyekt hududida istiqomat qiluvchi aholi ishtirokida jamoat eshituvi o'tkazilgan. Jamoat eshituvida qurilish ostiga tushadigan, ko'p yillik va kesilishga tushadigan daraxtlar mavjud emasligi qayd etilgan. Shuningdek, obyektда qurilish ostiga tushmaydigan daraxtlarni saqlab qolish to'g'risida tuzilgan kafolat xati, qurilish chiqindilarini olib chiqib ketish va poligonlarga joylashtirish bo'yicha shartnoma tuzishga buyurtmachi tomonidan kafolat xati berilganligi qayd etilgan.

Obyektни joylashtirish ko'zda tutilgan yer maydonining tabiiy holati o'zgartirilgan, mevali va manzarali daraxtlar ekilgan, yer maydoni o'zlashtirilgan, ma'muriy binolar, aholi turar joylari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, avtomobil yo'llari, yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiya aloqa tarmoqlari qurilib foydalanib kelinmoqda.

Hududning iqlimi keskin kontinental bo'lib, asosiy yog'ingarchiliklar bahor va qish oylari tushadi.

Hudud atmosfera havosining o'rtacha namligi eng sovuq oylarda 62 % eng issiq oylarda 23 % ni tashkil etadi. Eng sovuq oylardagi o'rtacha maksimal harorat -2,8 selsiyni eng issiq oylardagi o'rtacha maksimal harorat +38,5 selsiyni tashkil etadi.

Hududning tuprog'i fizik-mexanik xossalariga ko'ra suglinok: glina va qumdan iborat bo'lib, relefi tekisliklardan iborat. Yer qatlamining maksimal muzlash chuqurligi 32 sm ni tashkil etadi.

Shamol yo'nalishi shimol va shimoliy-sharq tomondan esib, o'rtacha yillik tezligi 2-4 m/s ni tashkil etadi.

Yer usti suvlari: Yer uchastkasi hududida yer usti suv manbalari daryo, ko'l, suv omborlari mavjud emas.

Yer osti suvlari: Hududda yer osti sizot suvlari relyefning past balandligiga hamda yil fasllariga bog'liq holda 5 metrdan 7 metrgacha chegaralarda uchraydi.

Obyekt joylashgan hudud alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, qo'riqxonalar, tabiiy yodgorliklar, suvni muhofaza qilish zonalari, suv olish joylarini sanitariya muhofaza zonalari mavjud emas.

Obyekt joylashtirilayotgan hududning o'simlik va hayvonot dunyosi cho'l sharoitiga moslashganlari mavjud bo'lib, antropogen va texnogen ta'sirlari natijasida hozirgi kunga qadar ularga yetkazilgan salbiy ta'sirlar sezilmagan.

Asosiy obyektlar: 12 ko'p qavatli turar joy binolari.

Qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turar-joy binolari har biri ShNQ 2.07.01.-03(shaharsozlik, shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish) talablari asosida loyihalashtiriladi.

Loyihaga ko'ra "Ko'p qavatli turar joy binolari" obyekt oldidagi maydonda uylarga kirish yo'laklari, bolalar maydonchasi, chiqindilarni vaqtincha yig'ish punkti, yo'laklar atrofida o'rindiqlar, ichimlik suv ta'minoti va maishiy xo'jalik oqova suvlari chiqarish uchun mahalliy tozalash inshooti (LOS) hamda ko'klamzorlashtirilgan maydonchalar tashkil etiladi.

Obyektning asosiy faoliyati fuqarolarning yashab dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qilishdan iborat

Obyekt barcha muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga (texnik shartlar orqali) ulanishi nazarda tutilgan.

Obyekt binosida ovqat tayyorlashda hamda qish mavsumida xonalarni isitishda zamonaviy elektr quvvatida ishlaydigan vositalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ovqat tayyorlashda gaz o'choqdan, xonalarni isitishda esa isitish qozonidan foydalanish ko'zda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi PQ 57-sonli “2023-yilda qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini va quvvat tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida aholiga yengillik sifatida barcha quriladigan obyektlarda quyosh panellari va foto elektr stansiyalari qurilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek “Ko‘p qavatli turar joy binolari va o‘quv markazi” yoritish ishlari hozirgi zamon talabiga mos quyosh panellari o‘rnatilgan holda belgilangan tartibda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda esa tarmoqqa ulangan quyosh panellari tizimi uyni o‘rtacha bir necha soat davomida to‘liq quvvat bilan ta‘minlay oladi. Elektr o‘chirilgan taqdirda ham, batareyalar ishlashda davom etaveradi.

Quyosh panellarining ishlashi maxsus moddalarni elektr tokiga aylantirish tamoyiliga asoslanadi. Xususan, ikkita kremniy plastinasi erkin elektronlarni hosil qiluvchi turli xil moddalar, asosan bor va fosfor bilan qoplangan. Quyosh nurlari ta‘sirida bu elektronlar harakatlana boshlaydi va elektr tokini hosil qiladi. Keyin hosil bo‘lgan elektr quvvati quyosh quvvatini yig‘uvchi batareyalarga uzatiladi.

Obyektda maishiy xo‘jalik ehtiyojlariga, qishki mavsumda har bir xonadon isitish qozoni ichki tizimi uchun suv talab etiladi.

Obyektni loyihalashda o‘rtacha taxminiy olinadigan quvvat resurslari sarfi turar joy binosining quvvat resurslari iste‘mol quvvati shartli ravishda o‘rtacha har bir xonadon uchun

sovuq suv sarfi $V1 - 0,5m^3$ /sutka

issiq suv sarfi $T3 - 0,3m^3$ /sutka

oqova suv sarfi $K1 - 0,8m^3$ /sutka

elektr toki talabi-10kVt/soat hisobga olingan holda loyihalashtiriladi.

“Qashqadaryo suv ta‘minoti”AJning texnik xulosasiga asosan Oqtepa suv inshootidan chiquvchi ichimlik suv qudug‘iga ulanish nazarda tutilgan.

Turar joyda yashovchilar soni aniq emasligiga ko‘ra suv sarfini hisoblashni imkoni mavjud emas. Obyektda bino pollarni yuvishda suv sarfi 1 kv. metrga 0,5 litr, qoplamali maydonlarga suv sepish uchun 1 kv.metr maydonga bir marta suv sepish uchun o‘rtacha 0,5 litrgacha suv hamda ko‘kalamzor maydonga suv sug‘orish uchun 1 kv.metr 6 litrgacha suv talab etiladi.

Obyektda asosan maishiy xo‘jalik oqovalari hosil bo‘ladi. Maishiy ehtiyojlardan hosil bo‘ladigan oqova suv iste‘mol qilingan suv miqdori barobarida olinadi. Hududda markazlashgan kanalizatsiya oqova suvlari tarmog‘i mavjud emasligi sababli, maishiy xo‘jalik oqovalari hududdagi ko‘p qavatli turar joylar

uchun umumlashtirilgan holda mahalliy tozalash inshooti (LOS) qurilishi rejalashtirilgan.

Bino joylashtiriladigan yer maydoni atrofidagi qor va yomg'ir suvlarining chiqib ketishi qurilish loyihasi tarkibida ishlab chiqiladi.

Yomg'in xavfsizligi uchun yiliga 54 metr kub suv doimo zaxirada saqlab qolinadi

Loyihaviy obyektни qurish davomida ishlovchi ishchi xodimlar uchun vaqtincha shart sharoit yaratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ishlovchi ishchi xodimlardan maishiy chiqindi chiqarilib, ular o'z vaqtida yig'ilib tegishli tartibda joylashtirilib, hal etiladi.

Obyekt faoliyatida 3 xil nomlanishdagi quyidagi chiqindilar hosil bo'ladi :

-qattiq maishiy chiqindilar;

-supurindi chiqindilari;

-yaroqsiz LED lampalar;

Obyektda har xonadon vakilidan bir yil davomida o'rtacha 350 - 450 kg qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Qattiq qoplama 1kv.metrдан 11,2 kg, asfalt qoplamali maydondan 1kv.metrдан 5,5 kg, bruschatkali maydondan 1kv.metr 7,5 kgdan chiqindilari hosil bo'lishi hisoblangan. Ushbu chiqindi turlarini joylashtirish uchun chiqindi konteynerlari joylashtirilgan. Obyekt faoliyatida hosil bo'ladigan maishiy qattiq chiqindilarni maxsus hududiy sanitar tozalashga ixtisoslashgan korxona bilan shartnoma asosida hududdan tegishli tartibda chiqindi avtomashinalar yordamida olib ketiladi.

Ular o'z ichiga qog'oz, latta, rezina, plastmassa, shisha, temir-beton, bo'laklari, supurindilarni, soch qiyqimlari, polietilen qoplari, oziq-ovqat qoldiqlarini va boshqalarni oladi.

Yaroqsiz LED lampalar dilerlik tashkilotlariga topshiriladi.

Obyektни qurish-tiklash davrida asosan qurilish chiqindilari hosil bo'lib, ularni nisbiy hosil bo'lish me'yoriy taxtaning 5%, pishiq g'isht 1%, sement 2%, gips 2%, qum 3%, oyna 5% va qurilish qorishmasining 2% ni tashkil etadi.

Turar joylarni isitishda tabiiy gazdan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, binolarni isitishda isitish qozonlaridan foydalaniladi. Isitish qozonlarining hamda agregatlarni tashish, tushirish uchun foydalaniladigan texnikalar va mexanizmlar ishlashi natijasida atmosfera havosiga Uglerod oksidi (CO), Azot oksidi (NO₂) va Oltingugurt dioksidi (SO₄), uglevodorodlar, aldegidlar, benz/a/perin, qurum va boshqalar chiqariladi.

Obyektning faoliyati hamda qurilishi jarayonida qattiq, suyuq, chang va gaz holatdagi chiqindi, tashlama va chiqarilmalar chiqariladi. Obyektni atrof muhitga ta'siri quyidagi hollarda kuzatiladi.

Atmosfera havosini ifloslantirish qurilish davomida inert va sement changi bilan birgalikda payvandlashdan ANO-4 elektroddan foydalanilib 0,00028g/sekund payvand changi, 0,000037 g/s marganes aerzoli tozalanmasdan chiqariladi.

Uy-joylarda favquloddagi tasodifiy holatlar yoqilg'i resurslaridan va elektr vositalardan noto'g'ri foydalanish natijasida hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik oqibatida kelib chiqishi ehtimoli bo'lib, uni bartaraf etish tadbirlari ko'zda tutilgan.

Obyekt atrof muhit o'zgarishining salbiy ekologik oqibatlarini yuzaga keltirmasligini hisobga olib, uni amalga oshirish mumkin deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi Qashqadaryo viloyati filiali **Qarshi shahar "Oqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini "Nurxona" ko'chasi 15-uy hududidan "Ko'p qavatli turar joy" binosini loyihalashtirib qurilishiga atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyihasini mazkur xulosada keltirilgan talablarni bajarish sharti bilan *ma'qullaydi.***



Ma'sul ekspert: PO'LATOV ANVAR DAVRANOVICH